

Amanov A.K

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

Geografiya kafedrası katta o'qituvchisi

Kutlimuradova Sh.A.

Urganch davlat pedagogika instituti

Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi

(geografiya) yo'nalishi 1-bosqich magistranti

O'zbekiston Respublikasi.

**7-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA AVSTRALIYA MATERIGIGA OID
MAVZULARIDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL QILISH**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada 7-sinf geografiya darsligidagi "Materiklar va okeanlarning tabiati" bobida Avstraliya materigiga oid mavzular doirasida tashkil etilishi mumkin bo'lgan amaliy mashg'ulotlar, shuningdek, ularni o'tkazish usullari ko'rib chiqiladi. Maqsad darslikda keltirilgan matnli va vizual materiallar, xususan, xaritalar, rasmlar, jadvallar va iqlim diagrammalari asosida turli xil amaliy ishlarni yaratish va ularni yechish usullarini ko'rsatish. Maqolada muhokama qilingan amaliy mashg'ulotlardan maktablarda geografiya fani o'qituvchilari uchun mazkur mavzularni o'qitishda va o'quvchilarni geografiya fan olimpiadasiga tayyorlash jarayonida ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.*

***Kalit so'zlar:** Avstraliya, geografik o'rin, kenguru, materikning chekka nuqtalari, milliy bog'lar, tabiiy geografik o'lkalar, Tasman oroli, qo'riqxonalar.*

Аманов А.К.

Старший преподаватель кафедры географии

Ургенчского государственного университета

имени Абу Райхона Беруни

Кутлимурадова Ш.А.

Ургенчский государственный педагогический институт

*1 курс магистратуры по специальности «методика преподавания
точных и естественных наук» (география)*

Республика Узбекистан.

**ОРГАНИЗАЦИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ ПО АВСТРАЛИЙСКОЙ
ТЕМАТИКЕ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ В 7 КЛАССЕ.**

Аннотация: В данной статье рассматриваются практические упражнения, которые можно организовать в рамках тем, связанных с материковой частью Австралии, из главы «Природа континентов и океанов» учебника географии для 7-го класса, а также методы их проведения. Цель — разработка разнообразных практических упражнений на основе текстовых и визуальных материалов, представленных в учебнике, в частности, карт, рисунков, таблиц и климатических диаграмм, и демонстрация методов их решения. Рассмотренные в статье практические упражнения могут быть использованы в качестве руководства для учителей географии в школах при преподавании этих тем и подготовке учащихся к Географической олимпиаде.

Ключевые слова: Австралии, географическое положение, кенгуру, крайние точки материка, национальные парки, природные географические зоны, остров Тасман, заповедники.

A.K. Amanov

Senior Lecturer, Department of Geography,

Urgench State University

named after Abu Rayhon Beruni

Kutlimuradova Sh.A.

Urgench State Pedagogical Institute

1st-year Master's student in "Methodology of Teaching Exact and Natural

Sciences" (Geography)

Republic of Uzbekistan.

ORGANIZING PRACTICAL CLASSES ON AUSTRALIAN TOPICS IN 7TH GRADE GEOGRAPHY LESSONS.

Abstract: *This article examines practical exercises that can be organized within the framework of topics related to the Australian mainland in the chapter "Nature of Continents and Oceans" in the 7th grade geography textbook, as well as methods for conducting them. The goal is to create various practical exercises based on the textual and visual materials provided in the textbook, in particular, maps, pictures, tables and climate diagrams, and to show methods for solving them. The practical exercises discussed in the article can be used as a guide for geography teachers in schools when teaching these topics and preparing students for the Geography Olympiad.*

Key words: *Australia, geographical location, kangaroos, extreme points of the continent, national parks, natural geographical zones, Tasman Island, nature reserves.*

ASOSIY QISM: Afrika materigi amaliy ishlari bo'yicha qilingan ilmiy maqoladan[4] keyin, ushbu Avstraliya materigi bo'yicha ham shu turkumdagi ilmiy maqola tayyorlashni maqsad qildik. Avstraliya materik mavzusini yoritishda, uning joylashgan o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi, negaki ushbu materik Yer sharining janubiy yarim sharida joylashgan ikki materikning biri sanaladi va o'z nomi bilan lotincha "*australius*" - o'zbek tiliga tarjima qilinganda "*janubiy*" materik deb nomlanadi. Shu bois birinchi amaliy mashg'ulot vazifasini materikning chekka nuqtalari va ularning koordinatalarini topish bilan boshlaymiz.

1-Topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring ?

1-jadval.


Avstraliya materigining chekka nuqtalari jadvali.

T/r	Materikning chekka nuqtalari	Materik chekka nuqtalari koordinatalari	Ekvatorga nisbatan uzoqligi (km)	Bosh meridianga nisbatan uzoqligi (km)
1.				
2.				
3.				

4.				
5.				

Jadval mualliflar tomonidan tuzildi.

Jadvalni to'ldirishda o'quvchi maktab darsligidagi tabiiy xaritadan yoki 7-sinf "Materiklar va okeanlar geografiyasi" atlasidan foydalangan holda Avstraliya materigining chekka nuqtalari koordinatalarini aniqlaydi va ularni jadvalga yozadi.



1-rasm. Avstraliyaning tabiiy xaritasi. 7-sinf darsligidan olindi.

Keyinchalik materigining har bir chekka nuqtasini ekvator va bosh meridianga nisbatan necha kilometr uzoqda ekanligini parallel va meridian yo'ylaridan foydalangan holda hisoblab topadi. Jadvalni to'ldirishda albatta geografiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga yordam berib boradi.

Maktab darsliklarida ko'pgina materiklarga xos bo'lgan tabiiy geografik obyektlar berilavermaydi (1-rasmga qarang). Qaysiki ma'noda bu to'g'ri, negaki yosh o'quvchilarda ko'pgina geografik obyekt nomlarini eslab qolish qiyinchilik tug'diradi. Ammo fan o'qituvchilari va geografiyadan fan olimpiadasiga tayyorlanayotgan o'quvchilar bu borada bir qadam oldinda bo'lishi lozim. Shu sababdan quyidagi 2-topshiriq orqali ularni bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga imkon beramiz.

2-Topshiriq. Quyidagi geografik obyektlarni jadvalda berilgan mos turlarga ajratib yozing ?

Geografik obyektlar: Eyr-Nord, Murrey, Katta Qumli cho‘li, Tasman*, Bass, Timor, Keyp-York, Saut-Ist Keyp, Katta Viktoriya cho‘li, Fitsroy, Katta Suvayirg‘ich, Arnemlend, Darling, Nallabor, Lichfield Park, Geograf, Arafur, Yanchep Park, Kuper-Krik, York*, King, Bayron, Makdonell, Marjon, Stip-Poynt, Torres, Katta Avstraliya, Avstraliya Alpi, Makkay, Barma, Flinders*, Karpentariya, Brus, From, Brakli, Zil, Kenguru, Keri, Grey, Katta Artezian havzasi, Saut-Ist Poynt, Eyr*, Kakadu, Ord, Gibson, Masgreyv, Simpson, Budraff, Kossyushko*, Eyr-Krik, Kent Grip, Viktoriya (* bilan berilgan nomlar ikki yoki undan ortiq obyektlarga nisbatan ishlatiladi).

2-jadval.

Avstraliya materigidagi geografik obyektlar jadvali

T/R	Geografik obyekt turi	Geografik obyekt nomi
1.	<i>Tog‘lar va platolar</i>	<i>Grey, Brakli, ..., ..., ...</i>
2.	<i>Cho‘qqilar</i>	<i>Brus, Ord, ..., ..., ...</i>
3.	<i>Cho‘llar</i>	<i>Simpson, Gibson, ..., ..., ...</i>
4.	<i>Chekka nuqtalari</i>	<i>York, Saut – Ist Keyp, ..., ..., ...</i>
5.	<i>Orollar va yarim orollar.</i>	<i>Kenguru, Flinders, ..., ..., ...</i>
6.	<i>Dengizlar, bo‘g‘izlar va qo‘ltiqlar.</i>	<i>Geograf, Torres, ..., ..., ...</i>
7.	<i>Daryolar va ko‘llar.</i>	<i>Flinders, Viktoriya, From, ..., ..., ...</i>
8.	<i>Milliy bog‘ va qoriqxonalar.</i>	<i>Kakadu, Barma, ..., ..., ...</i>


Jadval mualliflar tomonidan tuzildi.

Ushbu jadvalni to‘ldirish jarayonida o‘quvchilar yuqorida ta’kidlaganimizdek darslikdagi matn va xaritalardan, shuningdek 7-sinf uchun mo‘jallangan o‘quv atlasidan foydalangan holda, berilgan obyektlarni geografik joylashuvni eslab qolishi talab qilinadi. Bu orqali ularda shu geografik obyektlarni eslab qolish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Shuningdek, ayrim geografik obyektlarni bir xil nomlar bilan yuritilishi hamda ularni ajratish ko‘nikmasi shakllantirish, ushbu jadvalni to‘ldirishning muhim jihatlaridan biri sanaladi. Bunday tabiiy geografik obyekt nomlari Avstraliya materigida ayniqsa ko‘p takrorlanadi. Masalan: Flinders oroli (Bass bo‘g‘izida) – Flinders daryosi (Avstraliyaning shimolida joylashgan Karpentariya

qo'ltig'iga suv quyuvchi daryo), Eyr yarim oroli – Eyr ko'li – Eyr daryosi, York yarim oroli – York burni va hakoza.

3- Topshiriq. Raqamlar bilan berilgan tabiiy o'lkalar nomini amaliy mashg'ulotlar daftarinigizga yozing ?



2-rasm. Avstraliyaning tabiiy o'kalari. 7-sinf darsligidan olindi.

O'quvchilarga Avstraliyaning tabiiy o'lkalarining geografik joylashuvini aniqlashda quyidagi rasm va berilgan topshiriq muhim sanaladi. Ular bu xaritani o'rganish orqali tabiiy o'lkalarni xaritada joylashuvi haqidagi BKMga ega bo'ladilar. Shu bilan birga mazkur materikning tabiiy geografik o'lkalari haqida mustaqil izlanishlar olib boradilar.

3-jadval.

Avstraliya tabiiy o'lkalari

T/R	Tabiiy o'lkani nomi	o'lkani qaysi qismlarini egallaydi	Materikning qaysi qismlarini egallaydi	Yirik geografik obyektlari	Qanday tabiat zonlari bor
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					

7.				
----	--	--	--	--

Jadval mualliflar tomonidan tuzildi.

Shuningdek, geografiya fani o'qituvchisi o'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar doirasida qo'shimcha ravishda tabiiy o'lkalar haqida qisqacha matn yozishni ham vazifa qilib berib o'tsa bo'ladi. Bu orqali yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir tabiiy o'lkaning o'ziga xos xususiyatlari, geografik o'rni, relyefi, iqlimi va ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosiga bog'liq bilimlarni mustaqil o'rganish imkoni tug'iladi.



3-rasm. 7-sinf darsligidan olindi.

4-Topshiriq. Yuqoridagi rasmdagi geografik obyektlarni nomini nuqtaar o'rniga yozing?

- 1). *qo'ltig'i*,
- 2). *oroli*,
- 3). *tizmasi*,
- 4). *yarim oroli*
- 5). *okeani*,
- 6). *okeani*.

Umuman olganda 7-sinf darsligi doirasida barcha materik va okeanlar bo'yicha amaliy ishlar ishlab chiqish va doimiy ravishda boytish maqsadga muvofiq sanaladi.

XULOSA. Avstraliya materigi mavzularidan iborat 7-sinf geografiya darsligidagi bob doirasidagi amaliy mashg'ulot darslarini olib borish orqali materikning turli geografik obyektlari, geografik o'rni, tekshirilish tarixi, foydali qazilmalari, iqlimi, suvlari, hayvonot va o'simlik dunyosi, hamda tabiati muhofaza qilish borasidagi bilimlarga ega bo'ladilar yoki oldindan egallagan bilimlarini mustahkamlaydilar.

Mavzuga doir yana bir qator amaliy ishlarni tuzish mumkin va bu o'qituvchidan ko'proq vaqt, chuqur bilim, yanada ko'p izlanishlarni talab qiladi. O'z navbatida o'z ustida ishlayotgan o'qituvchida yangidan-yangi g'oyalar paydo bo'laveradi. O'quvchilarga bilim berishning yangi usullarini izlab topadi va uning o'quvchilari doim katta natijalarga erishaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.T. Mirakmalov va boshqalar. Geografiya 7[Matn]: 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. X.Vaxobov va boshqalar. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Nodirabegim" nashriyoti, 2021.
3. SH.A. Kutlimurodova. 7-sinf geografiya darslarida "Afrika" mavzusi doirasida amaliy ishlarni tashkil qilish usullari. "Экономика и социум" №5(144) 2026.